

# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2024-yil 8-avgust, № 159 (8782) Payshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QOZOG‘ISTONGA KELDI

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev davlat tashrifi bilan Qozog‘istonga keldi.**

Ostona xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev kutib oldi.

8-avgust kuni ikki mamlakat yetakchilari raisligida Oliy davlatlararo kengashning birinchi majlisi bo‘lib o‘tadi.

Muzokaralar chog‘ida O‘zbekiston – Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish, siyosat, savdo-iqtisodiyot, investitsiya, transport-kommunikatsiya, energetika, qishloq xo‘jaligi va madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikni kengaytirish masalalari atroflicha muhokama qilinadi.

Dasturga muvofiq Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi va “Markaziy Osiyo + Yaponiya” formatidagi muloqotda ishtirok etish ham rejalashtirilgan.

**O‘zA.**



Nigoh

## QOZOG‘ISTON VA O‘ZBEKISTON RAHBARLARINING MUNTAZAM MULOQOTI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARDA MUHIM AHAMIYATGA EGA

**“Kazinform” xalqaro axborot agentligi** ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga bag‘ishlangan tahliliy maqola e’lon qildi. Unda ikki davlat rahbarlarining muntazam muloqoti Qozog‘iston – O‘zbekiston munosabatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etayotgani ta’kidlangan.

“Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikning asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlari 1998-yil 31-oktabrda tuzilgan Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi Abadiy do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomadir. Shuningdek, 2013-yil iyun oyida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi shartnoma, 2022-yil dekabrda esa Ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi”, deyiladi agentlik tarqatgan materialda.

Shuningdek, maqolada parlamentlararo va savdo-iqtisodiy aloqalarning bugungi holati chuqur tahlil qilingan. Ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 2023-yil yakuniga ko‘ra 4,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi, deb ta’kidlangan nashrda.

“Ayni paytda Qozog‘iston va O‘zbekiston investitsiyaviy hamkorlikni faol kengaytirmoqda. Xususan, o‘tgan yil davomida ikki tomonlama investitsiyalar hajmi 86,2 mln. dollarni tashkil qildi, bu 2022-yildagiga nisbatan 14,3 foizga ko‘pdir”, deb qayd etilgan manbada.

Shuningdek, mamlakatlarimiz o‘rtasida madaniy almashinuv va ilmiy sohadagi aloqalarni yanada jadallashtirish uchun katta salohiyat mavjudligiga urg‘u berilgan. Xususan, Toshkent, Samarqand va Buxoro muzeylarida qozoq xalqi hayoti va madaniyatiga oid 500 ga yaqin eksponatlar o‘rin olgani ma’lum qilindi. Ayni chog‘da Qozog‘istonda o‘zbek tilida 10 dan ortiq ommaviy axborot vositalari chop etilayotgani va O‘zbekistonda qozoq telekanallarini mamlakat aholisining qariyb 10 foizi tomosha qilishi bayon etilgan. Bundan tashqari, ikki davlat o‘rtasida ochilgan yangi havo qatnovlariga e’tibor qaratilgan.

**“Kazaxstanskaya pravda” umummilliy gazetasi**da ushbu mavzuda bosilgan maqolada yozilishicha, ikki davlat o‘rtasidagi ittifoqchilik munosabatlarini amaliy mazmun bilan to‘ldirish zarur.

Nashrda ikki davlat rahbarlarining irodasi tufayli O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida yuqori darajadagi siyosiy ishonch shakllangani mamlakatlarimiz o‘rtasidagi munosabatlar hech qanday siyosiy vaziyatga duch kelmasligi va izchil mustahkamlanib borishini kafolatlayotgani ta’kidlangan.

➡ 2

O‘zbekiston – Qozog‘iston:

## O‘ZARO MANFAATLI ALOQALARDA ISTIQBOLLI KELISHUVLAR TO‘PLAMI

**Ostona shahrida O‘zbekiston va Qozog‘iston ishbilarmon doiralarining 300 dan ortiq vakillari ishtirokida qo‘shma biznes-forum bo‘lib o‘tdi.**

### Forum

Anjumanni O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Xo‘jayev va Qozog‘iston Bosh vaziri o‘rinbosari Serik Jumang‘arin olib bordi.

O‘zbekiston Bosh vaziri o‘rinbosari Jamshid Xo‘jayev bunday tadbirlar ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlashga kuchli turtki berishini ta’kidladi. Qozog‘iston O‘zbekistonning asosiy iqtisodiy hamkorlaridan biri ekanini e’tirof etdi.



Ikki mamlakat o‘rtasida sanoat kooperatsiyasi faol rivojlanib, umumiy qiymati 3,1 milliard dollarlik 69 ta loyiha va 14 700 dan ortiq ish o‘rinlari yaratishni nazarda tutadi. Maishiy texnika, yuk va yengil avtomobillar, traktorlar ishlab chiqarish bo‘yicha 217 million dollarlik 12 ta qo‘shma loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Faol bosqichda umumiy qiymati 178 million dollardan ziyod bo‘lgan 3 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, Taraz shahrida 500 ming tonna po‘lat buyumlar ishlab chiqarish quvvatiga ega elektrometallurgiya zavodi va Chimkent shahrida infuzion eritmalar ishlab chiqarish korxonasi mavjud.

O‘zbekiston Qozog‘istonga meva-sabzavot mahsulotlarini yetkazib beruvchi asosiy davlat hisoblanadi. Mamlakatimizdan agrosanoat mahsulotlarini yetkazib berishni rivojlantirish maqsadida tez buziladigan yuklarni tashishda “UZKAZTRADE” qo‘shma korxonasiga transport harakati ustuvorligini ta’minlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi.

➡ 2

“Markaziy Osiyo + Yaponiya”:

## BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH YO‘LIDA

*O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 9-avgust kuni Ostona shahrida bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammitida ishtirok etadi.*

### Biz va jahon

Mazkur muloqot 20 yildan buyon o‘tkazilayotgan bo‘lib, u Yaponiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri Yoriko Kavaguchining 2004-yil 26-avgustda Toshkentga tashrifi chog‘ida tashkil etilgan. Aytish mumkinki, o‘tgan davr mobaynida Yaponiya va Markaziy Osiyoning beshta davlati – O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston o‘rtasidagi ushbu noyob format o‘zaro aloqalarni rivojlantirish uchun muhim platformaga aylandi.

Muloqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad Yaponiya va mintaqa davlatlari o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy aloqalarni, madaniy-gumanitar almashinuvni kengaytirishdan iborat.

Yaponiyaning mintaqamizga bo‘lgan yuqori qiziqishi Markaziy Osiyoning strategik joylashuvi tufayli xalqaro maydonda katta rol o‘ynashi bilan izohlanadi. Mintaqa qadimiy Buyuk Ipak yo‘lining chorrahasi bo‘lib, tarixda turli madaniyat va xalqlarning o‘zaro ta’siri va almashinuvi manzili sifatida nom qozongan. Bugungi kunda mintaqaning barqarorligi va xavfsizligi xalqaro hamjamiyat, jumladan, Yaponiya uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘z navbatida, Markaziy Osiyo mamlakatlari mintaqaning barqaror rivojlanishiga erishish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlar doirasida “odamlarga investitsiya kiritish”, “o‘zaro bog‘liqlik” va “o‘sish sifati”ga alohida e’tibor qaratayotgan, yangi rivojlanish modelini ilgari surayotgan Yaponiya kabi hamkor mamlakat bilan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashdan manfaatdor.

➡ 2

**YUY SZYUN,**
**XXRning O‘zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi**

## XITOY O‘ZBEKISTON BILAN IZCHIL TARAQQIYOTGA YANGI SUR’AT BAG‘ISHLASHGA TAYYOR




*Yaqinda XKP Markaziy Qo‘mitasining yigirmanchi chaqiriq uchinchi plenumi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilish yakunida islohotlarni har tomonlama chuqurlashtirish va Xitoy modernizatsiyasini ilgari surish bo‘yicha salmoqli reja ishlab chiqildi. Ushbu plenum Xitoyning yuqori darajali rivojlanish, islohotlar va ochiqlik siyosatiga qat’iy rioya qilishiga, shuningdek, dunyoning barcha mamlakati, jumladan, O‘zbekiston bilan birgalikda taraqqiyot va farovonlik uchun hamma imkoniyatni baham ko‘rishiga kuchli turtki berdi.*

### Hamkorlik

**Modernizatsiya yo‘lida Xitoyning o‘z islohotlarini har tomonlama chuqurlashtirish bo‘yicha qat’iyati yanada mustahkamlandi.** Islohotlar – taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi. Murakkab va chigal xalqaro hamda ichki vaziyat, ilmiy-texnik inqilob va sanoat o‘zgarishlarining yangi bosqichi, shuningdek, xalqning yangi umidlari oldida Xitoy islohotlarga, maqsadli siyosatni yanada jadallik bilan amalga oshirishga va o‘z maqsadlariga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengib o‘tishga katta ahamiyat beradi.

Plenumda “Xitoy modernizatsiyasini rivojlantirish uchun islohotlarni har tomonlama chuqurlashtirish to‘g‘risida”gi XKP Markaziy Qo‘mitasining qarori qabul qilindi. Unda 300 dan ortiq muhim chora-tadbirlar taklif etildi. Iqtisodiyotni isloh qilishning rag‘batlantiruvchi yo‘llaridan foydalangan holda ijtimoiy tenglik va adolatni doimiy ravishda ustuvor vazifa sifatida ko‘rib chiqish, o‘zgarishlarning boshlang‘ich nuqtasi va pirovard maqsadi sifatida xalq farovonligini oshirish, Xitoy modernizatsiyasini harakatlantiruvchi kuch va institutsional kafolatlar bilan ta’minlashda tizimlilik va integratsiyaga ko‘proq e’tibor berish, islohotlarning amaliy natijalariga erishish nazarda tutilmoqda.

**Yangi yo‘lda Xitoy tashqi dunyoga tobora ulkan qadamlar bilan ochiladi.** Plenumda ochiqlik siyosati Xitoy modernizatsiyasining yorqin belgisi ekani butun dunyoga e’lon qilindi. Xitoy xalqaro hamkorlikni kengaytirish jarayonida ochiqlik siyosatini amalga oshirishi, shu bilan birga, xuddi shunday ko‘rinishdagi yangi iqtisodiy tizimni yaratishi lozim.

Xitoy dunyodagi ikkinchi yirik iqtisodiyot, xalqaro sanoat va ta’minot zanjiridagi muhim bo‘g‘in, shuningdek, jahon iqtisodiy o‘sishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Mamlakat o‘z salohiyatidan dunyoga ko‘proq barqarorlik olib kelish va o‘zaro ishonchni mustahkamlash uchun foydalanmoqda, shuningdek, rivojlanish va yuqori darajadagi ochiqligi tufayli butun dunyo mamlakatlariga hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biz o‘zaro aloqalarni chuqurlashtirish va rivojlantirish, Xitoy megamarkazlarini dunyo uchun katta imkoniyatlarga aylantirish va barcha mamlakatlar aholisiga modernizatsiya yutuqlarini taqdim etish orqali ochiq jahon iqtisodiyotini qurishga ko‘maklashamiz.

➡ 2

## ARALASH SAYLOV TIZIMINING AHAMIYATI QANDAY?

SAYLOV 2024 27-OKTABR MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

*Jahon tajribasidan ma’lumki, siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, ularning davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro uzviylikni ta’minlashda ochiq va shaffof ko‘rinishdagi saylov tizimi muhim ahamiyatga ega. Davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirishning eng muhim shakli, bu – saylovlar.*

Mamlakatimiz hayoti uchun muhim bo‘lgan saylov jarayonlarining har bir elementi Konstitutsiya darajasida mustahkamlangan. Xususan, Asosiy Qonunda fuqarolarning muhim siyosiy huquqi bo‘lgan saylov huquqining demokratik prinsiplari belgilangan.

➡ 2

## 34 320 o‘rinli 67 ta talabalar turarjoyi qurilmoqda

**2024/2025 o‘quv yilida talabalarni munosib kutib olish va ularni turarjoy bilan tezkor ta’minlash bo‘yicha yuzaga keladigan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish maqsadida joriy yilning 1-avgustidan 10-sentabrigacha “Dolzarb qirq kunlik” deb e’lon qilindi.**

Fakt va raqamlar

Bunda:

- **15-avgustdan boshlab** barcha oliy ta’lim muassasasining asosiy binolari va talabalar turarjoylariga kirish qismlariga kamida **4 ta** joyda “Talabalar turarjoylariga joylashtirish uchun yordam ko‘rsatish markazlari (infokiosklar)” tashkil etiladi;
- ijara xonadonlari bazasi shakllantiriladi;
- talabalarning guruh tyutorlari orqali ijara xonadonlariga joylashishiga ko‘maklashiladi;
- oliy ta’lim muassasasi rasmiy veb-saytida yangi topilgan ijara uylari ro‘yxati va ijara uylari haqidagi ma’lumotlar e’lon qilinadi.



**Ma’lumot uchun:** hozirgi kunda **112 ta** oliygohda jami **338 ta** talabalar turarjoyi mavjud bo‘lib, ularning sig‘imi **127 792** o‘rinni tashkil etmoqda.
Ayni paytda **34 320** o‘rinli 67 ta talabalar turarjoyini qurish ishlari olib borilmoqda.

*Manba: Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.*

# QOZOG‘ISTON VA O‘ZBEKISTON RAHBARLARINING MUNTAZAM MULOQOTI IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLARDA MUHIM AHAMIYATGA EGA


Hasan PAYDOYEV (“Xalq so‘zi”) olgan surat.

1 “Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘z oldiga tovar ayirboshlash hajmini 10 mlrd. dollarga yetkazishni maqsad qilib qo‘ygan. Unga erishish uchun tomonlar tovarlar tarkibini kengaytirish va savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirishga to‘siq bo‘layotgan muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish choralarini ko‘rishga kelishib oldilar. Sanoat, energetika, transport-logistika, qishloq xo‘jaligi sohalarida ham qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda”, deyiladi maqolada.

Unda Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar kun tartibiga amalda mumkin bo‘lgan barcha yo‘nalish kiritilgani alohida urg‘ulangan. Eng muhimi, mavjud masalalar bo‘yicha qarorlar o‘zaro manfaat va barqaror rivojlanishni ta’minlash mezoni asosida qabul qilinadi.

Maqolada O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti (SMTI) direktori Eldor Aripovning ushbu siyosiy muloqot institutsional asosga ega bo‘lgani – Oliy davlatlararo kengash tuzilgani, tashrif davomida uning birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tishi haqidagi fikrlari ham o‘rin olgan.

“Qozog‘iston va O‘zbekiston eng muhim savdo sheriklaridir. O‘zbekiston uchun Qozog‘iston hamisha uchta yirik savdo-iqtisodiy sheriklardan biri bo‘lib kelgan, shu bois tashrif natijasida savdo-iqtisodiy hamkorlikni yanada faollashtirish bo‘yicha yangi kelishuvlarga erishiladi. Qo‘shma investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha ishlarga yangi sur’at bag‘ishlaydi”, deya SMTI direktori fikridan iqtibos keltiriladi.

Gazetada, shuningdek, Qozog‘iston Strategik tadqiqotlar instituti direktori Yerkin Tukumovning quyidagi so‘zlari o‘rin olgan: “Resurslar, iqtisodiyotlar ko‘lami va geografik salohiyatini hisobga oladigan bo‘lsak, Qozog‘iston va O‘zbekiston obyektiv ravishda hamkorlik va mintaqaviy sheriklikning lokomotivlari hisoblanadi. Mintaqaviy o‘zaro hamkorlikning boshqa ishtirokchilari bizga qarashadi, shuning uchun mintaqaviy integratsiya muvaffaqiyati, ehtimol, bizning ikki tomonlama hamkorligimizga qanchalik chuqur va qanchalik sifatli yondashishimizga bog‘liq. Bu katta mas’uliyat – o‘tkinchi kayfiyatlarga berilmaslik, balki strategik nuqtayi nazardan istiqbolga qarash kerak. Qolaversa, biz infratuzilma sohasida, umumiy xarakterdagi muammolarni yengib o‘tishda mumkin bo‘lgan yirik loyihalarni birlashish orqaligina hal qila olamiz, deb o‘ylayman”.

Mamlakatdagi ommabop **“24KZ”** yangiliklar kanali, o‘z navbatida, Qozog‘iston Milliy muzeyida ochilgan o‘zbek rassomlari asarlari ko‘rgazmasi haqidagi xabarni o‘z o‘quvchilari o‘rtasida tarqatdi.

Milliy muzeyga O‘zbekistonning 200 ga yaqin rangtasvir va xalq amaliy san’ati asarlari joylashtirildi, deyiladi kanal axborotida.

“O‘zbekistonlik usta va rassomlarning uch avlodi ijodi keng jamoatchilikka taqdim etildi. Ko‘rgazma keng ko‘lamli janr va texnikalarni qamrab oladi: an’anaviy miniatyuradan tortib – zamonaviy san’atgacha. 8-avgustga qadar davom etadigan ko‘rgazma qozog‘istonliklarga O‘zbekistonning madaniy va tarixiy an’analari bilan yaqindan tanishish imkonini taqdim etadi”, deb yozgan yangiliklar kanali muxbiri.

**“24KZ”** Qozog‘iston poytaxti Ostona shahrida O‘zbekiston kinosi kunlari boshlangani haqida ham xabar berdi. Tomoshabinlar uchun mashhur avtobiografik filmlar va zamonaviy kinolar taqdim qilinadi. Namoyish “Mega Silkway” kinosaroyida bo‘lib o‘tadi va unga kirish bepul.

“Qozog‘istondagi O‘zbekiston kinosi kunlari har yili o‘tkaziladigan tadbirdir. Bunday madaniy tadbirlar ikki mamlakat hamkorligini har tomonlama rivojlantirmoqda. Masalan, Qozog‘iston va O‘zbekiston kinoijodkorlari hamkorlikda “Meros” va “Abay” filmlarini suratga olishgan. Kinoijodkorlar Markaziy Osiyodagi yirik festivallarda ham tajriba almashadi. Kasbiy aloqalar ham kinematografiya sohasida hamkorlik memorandumi bilan mustahkamlangan”, deyiladi maqolada.

Nashrda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi kino sohasidagi hamkorlik bu bilan cheklanib qolmasligi ta’kidlangan. Ijodiy g‘oyalarni hayotga tatbiq etish bo‘yicha oldinda ko‘plab reja va g‘oyalar turibdi, deb ma’lum qilingan materialda.

Maqola yakunida “Ostonaliklar Qozog‘istondagi O‘zbekiston kinosi kunlari doirasida namoyish etiladigan “Yasha, xotin!” komediyasini bepul tomosha qilish imkoniyatiga ega”, deb yozilgan portal axborotida.

O‘zbekiston – Qozog‘iston:

## O‘ZARO MANFAATLI ALOQALARDA ISTIQBOLLI KELISHUVLAR TO‘PLAMI

1 O‘zbekiston Qozog‘istonning eng yirik savdo hamkorlaridan biri bo‘lib, 2023-yilda 7-o‘rinni egalladi. Keyingi besh yil ichida o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 29 foizga oshdi va 2022-yilda 5 milliard dollarga yetdi. “Endigi vazifa davlatlarimiz rahbarlari tomonidan qo‘yilgan maqsad – o‘rta muddatli istiqbolda 10 milliard dollarga erishishga harakat qilishimiz kerak”, dedi Serik Jumang‘arin.

Forumda ikki mamlakat vazirliklari, idoralari, tarmoq birlashmalari va hududlar rahbarlari ham ishtirok etdi. Avtomobilsozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, kimyo sanoati hamda logistika kabi sohalarni o‘z ichiga oluvchi qo‘shma loyihalar muhokama qilindi, bir necha milliard AQSh dollariga teng yangi kelishuvlar to‘plami shakllantirildi.

Tadbir doirasida “B2B” va “G2B” formatida muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Unda ikki mamlakat tadbirkorlari bo‘lajak hamkorlik istiqbollarini va sheriklikning amaliy jihatlarini batafsil muhokama qildi. Tadbirda hududlararo hamkorlikni kengaytirish maqsadida shu yilning oxirigacha Samarqandda Mintaqalar forumini o‘tkazishga kelishib olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

“Markaziy Osiyo + Yaponiya”:

## BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH YO‘LIDA

1 Bugungi kunga qadar tashqi ishlar vazirlari darajasida “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining to‘qqizta uchrashuvi o‘tkazilgan. Ularning yakunlari bo‘yicha o‘zaro munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqildi, qisqa va o‘rta muddatli vazifalarni belgilab bergan Harakat rejasi tasdiqlandi.

Muloqot doirasida Yaponiya savdo va investitsiyalar, atrof-muhitni muhofaza qilish, energetika, tabiiy ofatlarni boshqarish, qishloq xo‘jaligi va barqaror rivojlanish, shuningdek, giyohvandlik moddalarining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish, Markaziy Osiyoda chegaralarni boshqarish yo‘nalishlarida mintaqaviy loyihalarni amalga oshirishda yordam bermoqda.

Bundan tashqari, muloqot doirasida vazir o‘rinbosarlari darajasidagi shaxslarning 16 ta uchrashuvi, 11 ta “Tokio intellektual muloqoti”, sanoat tarmoqlari ekspertlarining 7 ta uchrashuvi va 2 ta biznes muloqoti tashkil etildi. 2023-yil sentabr oyida birinchi Iqtisodiy va energetika muloqoti bo‘lib o‘tdi. Unda energiya almashinuvi va 2050-yilga borib toza nol emissiyaga erishish tashabbusini tezlashtirish masalalari muhokama qilindi.

Qisqacha aytganda, Ostona shahrida davlat rahbarlari darajasida bo‘lib o‘tadigan “Markaziy Osiyo + Yaponiya” muloqotining birinchi sammiti so‘nggi yigirma yillikdagi munosabatlarni sarhisob qilish, shuningdek, yaqin va o‘rta muddatli istiqbolda turli sohalarda o‘zaro manfaatli sheriklik strategiyasini va yangi yo‘nalishlarni belgilab olish imkonini beradi.

**“Dunyo” AA.**

# XITOY O‘ZBEKISTON BILAN IZCHIL TARAQQIYOTGA YANGI SUR’AT BAG‘ISHLASHGA TAYYOR

1 **Xitoy ana shu ezgu maqsadga yetishishda tinch taraqqiyot yo‘lidan og‘ishmay boradi.** Mamlakat o‘zining mustaqil va do‘stona tashqi siyosatiga qat’iy amal qiladi, davlat suvereniteti, xavfsizligi va taraqqiyoti manfaatlarini qat’iy himoya qiladi. Mas’uliyatli davlat sifatida Xitoy suveren tenglik, o‘zaro hurmat, adolat, ochiqlik va inklyuzivlik tamoyillariga sodiq, tinchlik va insoniyat taraqqiyoti yo‘lida doim sobitdir. “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusini yo‘lga qo‘yishdan boshlab, global taraqqiyot, global xavfsizlik va global sivilizatsiya tashabbuslariga qadar, XXR insoniyatning yagona hamjamiyatini barpo qilishda yetakchi rolni o‘z zimmasiga oldi. Bugun mamlakat umumbashariy qadriyatlarni amaliyotga tatbiq etmoqda, teng huquqli va ko‘p qutbli dunyo, shuningdek, hamma uchun ochiq va inklyuziv iqtisodiy globallashuv, global boshqaruv tizimini isloh qilish va rivojlantirishda ishtirok etish, jahon taraqqiyotiga yangi sur’at bag‘ishlash tarafdoridir.

**Xitoy va O‘zbekiston – umumiy maqsadga ega bo‘lgan mamlakatlar, o‘zaro manfaatli hamkorlik qiluvchi ishonchli sherik va bir-birini qo‘llab-quvvatlovchi yaxshi do‘stlar sifatida modernizatsiya yo‘lida yonma-yon bormoqda. Islohotlarni chuqurlashtirish va ochiqlikni kengaytirish ikkala tomon uchun ham muhim ahamiyatga ega.**

Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O‘zbekiston milliy manfaatlarga mos taraqqiyot yo‘lidan bormoqda, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda muhim islohotlarni amalga oshirmoqda. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlar ro‘yobi sari qat’iy intilmoqda. Bu davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalq farovonligini sezilarli darajada yaxshilash, xalqaro va mintaqaviy nufuzini oshirish imkonini beryapti.

Joriy yilning yanvar oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev Xitoyga davlat tashrifi bilan borgan edi. Uchrashuvda ikki mamlakat rahbarlari o‘zaro munosabatlarni har tomonlama strategik sheriklik darajasiga ko‘tarishga kelishib oldilar. Tomonlarning birgalikdagi kelishuvlari tufayli ikki davlat rahbarlarining konsensus hamda qarashlari harakat va natijaga aylanmoqda.

Joriy yilning birinchi yarmida ikki tomonning savdo va investitsiyalari o‘sishda davom etdi. O‘zbekistonda Xitoy korxonalari soni izchil ko‘paymoqda, muhim hamkorlik loyihalari ilgari surilmoqda. Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘lini qurish loyihasi doirasida uch tomonlama hukumatlararo bitim imzolandi.

Tomonlar energetika, infratuzilma qurilishi, zamonaviy qishloq xo‘jaligi va boshqa sohalarda faol hamkorlik qilmoqda. Ta’lim, madaniy va hududlararo almashinuvlarni amalga oshirmoqda, shu tariqa o‘zaro aloqalar ko‘lami kengayishda davom etmoqda.

Bundan buyon ham Xitoy O‘zbekiston bilan birgalikda “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi va Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi uyg‘unligini chuqurlashtirish, modernizatsiya yo‘lida bir-birini qat’iy qo‘llab-quvvatlashda davom etish, hamkorlikning yangi bobini birgalikda ochib, rivojlanish imkoniyatlarini baham ko‘rish va ikki tomonlama munosabatlar taraqqiyotiga yangi sur’at bag‘ishlashga tayyor.

# ARALASH SAYLOV TIZIMINING AHAMIYATI QANDAY?

1 Unga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadir. Har bir saylovchi bir ovozga ega. Ovoz berish huquqi, o‘z xohish-irodasini bildirish tengligi va erkinligi qonun bilan kafolatlanadi. Saylovlar umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo‘li bilan o‘tkaziladi. O‘zbekiston Respublikasining o‘n sakkiz yoshga to‘lgan fuqarolari saylash huquqiga ega.

Konstitutsiyada ayrim istisno holatlar ham belgilangan. Unga ko‘ra sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan fuqarolar, shuningdek, sud hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylanishi mumkin emas.

Sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan, shuningdek, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar sodir qilganligi uchun sudning hukmi bilan ozodlikdan mahrum etish joylarida saqlanayotgan shaxslar saylovda qatnashmaydi. Boshqa har qanday hollarda fuqarolarning saylov huquqlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklashga yo‘l qo‘yilmaydi.

Saylov tizimining xalqchilligi, barcha uchun tushunarli va qulay bo‘lishi fuqarolarga ularning o‘z xohish-irodasini erkin ifodalash imkoniyatini yaratadi. Demokratiyaning eng muhim prinsipi – davlat hayotida ishtirok etishga, davlatni boshqarish jarayoniga fuqarolarni muntazam jalb qilishdir. Mazkur prinsipning amalga oshirilishi dastlab saylovlarning qay darajada o‘tkazilishi bilan bog‘liq.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi davlat hokimiyatining oliy vakillik organi – Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan aralash saylov tizimini joriy etishga zamin yaratdi. Shu bois 2023-yil 18-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun bilan Saylov kodeksi va amaldagi yettita qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. Unga ko‘ra mamlakatimizda oliy vakillik organi quyi palatasini shakllantirishda aralash saylov tizimi joriy etildi.

Xo‘sh, aralash saylov tizimi mamlakatimizda mavjud bo‘lgan majoritar saylov tizimidan qanday farqi bor? Uning afzalliklari nimalardan iborat?

Xorijiy mamlakatlar amaliyotidan ma’lumki, dunyoda majoritar, proporsional hamda aralash saylov tizimlari mavjud bo‘lib, ularning har birida o‘ziga xos afzallik va bahstalab tomonlar bor. Aralash saylov tizimi majoritar va proporsional saylov tizimlarining elementlarini birlashtirgan holda fuqarolarning siyosiy huquqlarini hamda siyosiy vakillikning adolatli va barqaror bo‘lishini ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda Janubiy Koreya, Belgiya, Vengriya, Rossiya, Germaniya kabi davlatlardagi saylovlar aralash saylov tizimi asosida o‘tkaziladi.

Xususan, majoritar saylov tizimida siyosiy partiyalar har bir saylov okrugi bo‘yicha bittadan nomzodni ilgari suradi va bir mandatli saylov okruglaridan bitta nomzod saylanadi. Bunda ushbu saylov okrugdagi saylovchilarning mutlaq ko‘pchiligi (50 foiz + 1 ovoz) yoqlab ovoz bergan taqdirdagina nomzod deputat etib saylanishi nazarda tutiladi.

Mamlakatimizdagi yangilangan saylov tizimi bo‘yicha ushbu talab o‘zgargan, ya’ni navbatdagi saylovlar mutlaq ko‘pchilik ovoz berish shaklida emas, balki nisbiy ko‘pchilik ovoz berish shaklida o‘tkaziladi. Bunda bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha ko‘rsatilgan nomzodlar uchun ovoz berishda ishtirok etgan saylovchilarning boshqa nomzodlarga nisbatan ko‘proq ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Bu esa saylovlardagi takroriy ovoz berishlar, budjet xarajatlarini tejashga imkon beradi.

Hozirga qadar Oliy Majlis Qonunchilik palatasining deputatlari saylovini o‘tkazish uchun 150 ta hududiy saylov okrugi tuzilar va ularning har biridan bittadan deputat saylanar edi. Endilikda Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi (partiya ro‘yxati) asosida siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar bo‘yicha yagona saylov okrugidan saylanishi belgilandi.

Saylov kodeksiga muvofiq, Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatilgan nomzodlar ro‘yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasining butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi.

Shunday qilib, 2024-yil oktabr oyida parlamentning quyi palatasi uchun o‘tkaziladigan saylovlarda 75 ta saylov okrugi tuziladi. Bunda fuqarolar har bir okrugda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatiladigan nomzodlarga ovoz berish bilan bir qatorda, o‘zi qo‘llab-quvvatlaydigan siyosiy partiyaga ham ovoz beradi. Saylov yakunida barcha siyosiy partiyalarga ovoz bergan saylovchilar soni, har bir siyosiy partiyaga berilgan ovozlar soni hamda shunga mutanosib ravishda har bir siyosiy partiyaga ajratiladigan deputatlik o‘rinlari soni ham aniqlanadi.

Ushbu jarayonda Markaziy saylov komissiyasi muhim vazifalarni bajaradi. Xususan, siyosiy partiyalar tomonidan Qonunchilik palatasi deputatligiga ko‘rsatilgan nomzodlarni, shuningdek, partiya ro‘yxatini belgilangan tartibda ro‘yxatga oladi va ular haqidagi ma’lumotlar matbuotda e’lon qilinishini tashkil etadi.

Qonunchilikka muvofiq partiya ro‘yxatini ro‘yxatga olish uchun tegishli hujjatlar siyosiy partiyaning vakolatli vakili tomonidan ro‘yxatga olish muddati tugashiga kamida yetti kun qolgunga qadar Markaziy saylov komissiyasiga taqdim etiladi. Partiya ro‘yxatini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish saylovga o‘ttiz besh kun qolganida tugallanadi.

Siyosiy partiyalar bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha deputatlikka 75 nafar nomzod, ya’ni har bir saylov okrugidan bittadan deputatlikka nomzod ko‘rsatishga; partiya ro‘yxati bo‘yicha 75 nafardan kam bo‘lmagan, 100 nafardan ko‘p bo‘lmagan deputatlikka nomzod ko‘rsatishga vakolatlidir.

Bir mandatli saylov okruglarida ayni bir shaxs faqat bitta saylov okrugidan deputatlikka nomzod etib ko‘rsatiladi. Partiya ro‘yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning a’zolari yoki partiyasiz bo‘lishi mumkin. Boshqa siyosiy partiyaning a’zolari ushbu ro‘yxatga kiritilishi mumkin emas. Ayni bir nomzod faqat bitta partiya ro‘yxatiga kiritilishi joiz.

Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi siyosiy partiyalar tomonidan belgilanadi. E’tiborli jihati, ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha, shuningdek, partiya ro‘yxati asosida siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida qirq foizini tashkil etishi kerak (ilgari bu miqdor o‘ttiz foiz edi). Bunda partiya ro‘yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo‘lishi lozim.

Siyosiy partiyalar o‘z partiyasi a’zolarini yoki partiyasizlarni deputatlikka nomzod etib ko‘rsatishga vakolatlidir. Deputatlikka nomzodlar ko‘rsatish hamda partiya ro‘yxatini shakllantirish to‘g‘risida bayonnoma tuziladi.

Saylov kodeksi $96^1$-moddasiga ko‘ra yagona saylov okrugi bo‘yicha saylanadigan Qonunchilik palatasining deputatlik o‘rinlari ushbu saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarining yetti va undan ko‘proq foizini to‘plagan siyosiy partiyalar o‘rtasida taqsimlanadi.

Markaziy saylov komissiyasi deputatlik mandatlarini siyosiy partiyalar o‘rtasida taqsimlash to‘g‘risida bayonnoma tuzadi. Partiya ro‘yxati bo‘yicha saylangan deputatlar o‘rtasida deputatlik mandatlarini taqsimlash Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan partiya ro‘yxatiga kiritilgan deputatlikka nomzodlar ketma-ketligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Markaziy saylov komissiyasi saylov yakunlari to‘g‘risidagi bayonnomani imzolaganidan so‘ng bu haqda deputatlik mandatlari taqsimlangan siyosiy partiyalarni va saylangan deputatlarni darhol xabardor qiladi.

Qonunchilik palatasi deputati etib saylangan shaxslar xabarni olgandan so‘ng besh kun ichida Markaziy saylov komissiyasiga Qonunchilik palatasi deputatining maqomiga to‘g‘ri kelmaydigan vazifalarni o‘z zimmasidan soqit qilganligi to‘g‘risida yozma shaklda ma’lum qilishi shart.

Mamlakatimiz va xorijiy davlatlar tajribasidan ma’lumki, majoritar saylov tizimining bir qator o‘ziga xos tomonlari ko‘zga tashlanadi. Bunga misol sifatida saylovda saylovchilar nomzodning shaxsi, obro‘-e’tibori, individual qobiliyati va fazilatlari kabi jihatlariga e’tibor qaratadi. Ammo nomzodning qaysi partiyadan ko‘rsatilganiga e’tibor berilmaydi va natijada saylovlardagi partiyalararo raqobat hamda mamlakatda ko‘p partiyaviylik tizimi rivoji sustlashadi. Shu bois bir qancha mamlakatlar, xususan, Avstriya, Italiya, Braziliya, Niderlandiya, Shvetsiya, Finlyandiya, Turkiyada majoritar saylov tizimini qisman saqlab qolgan holda proporsional saylov tizimi joriy etilgan.

Qisqacha aytganda, proporsional saylov tizimining asosiy maqsadi saylovlarda olingan ovozlar bilan amalda parlamentda egallangan mandatlar mutanosibligini ta’minlashdir.

Xorijiy davlatlar tajribasiga tayanib, aralash saylov tizimining quyidagi ijobiy jihatlariga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

*Birinchidan*, aralash saylov tizimi adolatli mahalliy va respublika darajasidagi vakillikni ta’minlaydi. Bu tizimda saylovchilar bir vaqtning o‘zida ham majoritar, ham proporsional tartib bo‘yicha ovoz beradi. Birinchisi, saylov okruglaridagi nomzodlar uchun (majoritar) ovoz beradi. Ikkinchisi – siyosiy partiyalar uchun (proporsional). Ya’ni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga aralash saylov tizimi bo‘yicha saylov o‘tkazilishi munosabati bilan har bir saylovchiga saylov kuni majoritar saylov tizimi bo‘yicha bitta, proporsional saylov tizimi bo‘yicha ham bitta, jami ikkita saylov byulleteni beriladi.

Aralash saylov tizimiga ko‘ra har bir okrugdan saylangan nomzodlar orqali parlamentda hududlar (saylovchilar) manfaati ifodalanadi. Shu bilan birga, siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar asosida qonun chiqaruvchi organdagi o‘rinlar soni taqsimlanadi. Bu turli hududlar va partiyalarning manfaatlarini inobatga olishga yordam beradi.

*Ikkinchidan*, aralash saylov tizimi partiyalararo raqobatni kuchaytiradi. Ya’ni majoritar saylov tizimida muvaffaqiyat qozona olmagan partiyalarga ham o‘zlari olgan ovozlarga mutanosib ravishda parlamentda deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritish imkoniyatini yaratadi.

*Uchinchidan*, aralash saylov partiyalararo raqobatni kuchaytirishi bilan birga muhim qarorlarni qabul qilishda o‘zaro hamkorlikni ham ta’minlaydi. Bu esa siyosiy kuchlarni birgalikda ishlashga va murosa muhitini yaratishga undaydi.

*To‘rtinchidan*, aralash saylov tizimi saylovchilarning saylovlardagi faolligini oshiradi. Sababi majoritar va proporsional tizimlardagi ovozlar hisobga olingani uchun fuqarolar o‘z ovozlarining saylov natijalariga ta’sirini ko‘ra oladi.

*Beshinchidan*, aralash saylov tizimida bo‘shab qolgan deputatlik o‘rinlari saylovlarda taqdim etilgan siyosiy partiyalarning ro‘yxatidagi nomzodlar hisobidan to‘ldiriladi. Bu esa saylovlarni o‘tkazish bilan bog‘liq Davlat budjeti mablag‘lari tejalishiga olib keladi.

Demak, shu yil 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tadigan saylovlarning aralash saylov tizimi asosida o‘tkazilishi mamlakatimizda siyosiy partiyalarning ahamiyati va rolini yanada oshirishda muhim o‘rin tutadi, fuqarolarning davlat hamda jamiyat hayotidagi jarayonlarga ta’siri va daxldorligini kuchaytiradi.

**Xushvaqt HAYITOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri, yuridik fanlar doktori, professor,**
**Muslimbek YAXSHIYEV,**
**Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti.**

**O‘zbekiston va Qozog‘iston Qishloq xo‘jaligi vazirliklari o‘rtasida don va moyli o‘simliklar yetishtirish bo‘yicha memorandum imzolandi.**

Senat qo‘mitasida

# XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA’MINLASH MASALALARI MUHOKAMASI

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan shu yil 7-mart kuni Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda mamlakatimizda ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko‘tarish va ularning bandligiga ko‘maklashish borasida qator vazifalar belgilab berildi.*



Davlatimiz rahbarining “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ana shu vazifalar ijrosi yo‘lidagi muhim hujjat bo‘ldi.

Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tomonidan o‘tkazilgan ayollar tadbirkorligini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash uchun grant mablag‘larini (100 mln. dollar) jalb etish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda bu alohida ta’kidlandi. Unda Senat a’zolari, mas’ul vazirlik va idoralar, nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar vakillari qatnashdi.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda kichik biznes, xususiy va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yil boshidan 3,5 mlrd. dollarlik 3 mingta loyiha ishga tushirilib, 76 mingta yuqori daromadli doimiy ish o‘rni yaratildi. Tadbirkorlik uchun 82 trln. so‘mlik kredit va 15,5 trln. so‘mlik subsidiya berilib, 600 ming aholi biznesga jalb qilindi.

Xotin-qizlarning tadbirkorlik loyihalarini keng qo‘llab-quvvatlash maqsadida grantlar, texnik ko‘mak va boshqa tashqi beg‘araz ko‘mak mablag‘larini faol jalb etish, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va jamg‘armalar bilan aloqalarni rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan.

Tadbirda vazirlik va idoralar, nodavlat tashkilotlar vakillariga grant olish yuzasidan takliflar tayyorlash hamda taqdim qilish tartibi haqida tushunchalar berildi.

Tashqi ishlar, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirliklariga xorijdagi vakolatxonalar bilan birgalikda xalqaro donor tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish va tayyorlangan takliflarni ularga yetkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Bunda Saudiya Arabistoni, Qatar, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi davlatlarga alohida e’tibor qaratish kerakligi aytib o‘tildi.

Shuningdek, mas’ul vazirlik va idoralar bilan birgalikda 14 yo‘nalishda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishga xalqaro moliya tashkilotlarining grant mablag‘larini jalb etish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqildi.

Manfaatdor vazirlik hamda idoralar tomonidan tayyorlangan jami 140,5 mln. dollarga teng o‘zbek tilidagi 59 ta grant loyihasi konsepsiyalari bo‘yicha fikr va takliflar bildirildi.

**“Xalq so‘zi”.**

# XALQ ISHONCHI VA DEPUTAT MAS’ULIYATI

*Mamlakatimizda keyingi yillarda xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilishga oid dolzarb masalalarni hal etish bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi. Xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish borasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda.*

Fikr

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan mahalliy Kengashlarning nazorat faoliyatini kuchaytirishga qaratilgan huquqiy asoslar yaratildi, ularning nufuzini oshirish yuzasidan islohotlar o‘tkazilyapti.

Deputatlarning saylovchilar bilan uchrashuv o‘tkazish, ijro hokimiyati vakillarining hisobotlarini eshitish, siyosiy partiyalarning deputatlik guruhlari ishini jonlantirish, deputatlik so‘rovlariga e’tiborsizlik ko‘rsatilgan holatlarda ma’lum choralar qo‘llash kabilar shular jumlasidandir.

Mahalliy Kengashlarda kengash kotibi va 2-3 nafardan xodim shtat birligining joriy etilishi deputatlar faoliyatini jonlantirdi, deb ayta olamiz. Bunday imkoniyat tufayli har bir deputat bilan individual ishlash, ular faoliyatini monitoring qilish, sessiyalar qarorlarini rasmiylashtirish, qarorlar ijrosining nazorati imkoniyati paydo bo‘ldi.

Misol uchun, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashida doimiy komissiyalar bir hafta oldin, ya’ni sessiya bo‘lishi to‘g‘risidagi e’lon chiqqach o‘z yig‘ilishlarini o‘tkazishadi. Doimiy komissiyalar raislari ishtirokida alohida mashvarat guruhi tashkil etilgan. Bu ishchi guruh sessiyaga olib chiqiladigan har bir materialni sinchiklab o‘rganadi, mutaxassislar xulosasini eshitadi, ayniqsa, hisobot beruvchilar tayyorgarligini tekshirib ko‘radi. Sessiyalarda hisobot beruvchilar oldingi sessiya qarorlarida zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosi bo‘yicha ham axborot beradi.

Ta’kidlash joizki, viloyat Kengashi sessiyasining jonli tarzda ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rsatilishi nafaqat saylovchilarni faoliyatimizdan xabardor etadi, balki deputatlar mas’uliyatini ham kuchaytiradi.

Darvoqe, saylovchilar murojaatlari bilan ishlash, ularni qiynab kelayotgan muammolarga yechim topishda mahalliy budjetning oshirib bajarilgan qismi hisobidan deputatlarga mablag‘ ajratilishi ham yaxshi amaliyot bo‘ldi. Ushbu mablag‘ okrug hududidagi aholi salomatligini tiklash, murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajarish hamda turli ijtimoiy muammolarini hal etishga yo‘naltirilmoqda.

Ilgari kuzatilmagan yana bir jihat – xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari bilan qo‘shma sessiyalar o‘tkazish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni atroflicha muhokama qilish bilan birga deputatlar faolligini ham oshirmoqda.

Shu o‘rinda aytib o‘tish zarurki, Oliy Majlis Senati qoshidagi Mahalliy vakillik organlariga ko‘maklashish markazi mahalliy Kengashlar deputatlariga chinakam yordam bermoqda. Senat yalpi majlisida mahalliy Kengashlar deputatlari bilan hamkorlikda viloyat hokimlarining hisob berishini uyushtirish, u yoki bu viloyatda islohotlarning borishini o‘rganish har bir deputat uchun ham chinakam tajriba maktabi bo‘layotir.

Tajribadan ma’lumki, har yili ikki marta deputatlik so‘rovlariga kelgan javoblar yuzasidan axborot beriladi. Bu ishga e’tiborsiz qaragan rahbarlardan aynan sessiyaning o‘zida izoh so‘raladi. Shu bilan birga, deputatlarimiz u yoki bu masalani muhokama qilish chog‘ida, agar muammo respublika darajasidagi tashkilot yoki vazirlik bilan bog‘liq bo‘lsa, senatorlar orqali ularga murojaat bilan chiqishyapti. Shu yilning o‘zida uch marta ana shunday so‘rovlar uyushtirildi.

Kezi kelganda deputat mas’uliyati haqida ko‘nglimdagi bir gapni aytmoqchiman. Har bir deputat xalq ishonchini oqlashi kerakligini tushunib yetdi. Bu mas’uliyatga, albatta, o‘z saviyasi darajasida yondashadi. Bu saviya biz istaymizmi-yo‘qmi, saylovdan oldin siyosiy partiyalar bahosi bilan tanlangan. Ana shunday paytda hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, mas’uliyatini his qilgan deputatlar ibrati bizga katta yordam beryapti.

Deputatlik – jamoatchilik ishi, ya’ni uning faoliyatiga maosh to‘lanmaydi. Bunday paytda tajribasi bor, ishidan vaqt ajrata oladigan deputatlarga biroz yengillik bor. Ular nafaqat saylovchilar, balki jamoat tashkilotlari bilan ham yaqin aloqa o‘rnatadi. Ammo ishlab chiqaruvchi yoki boshqa davlat tashkilotlarida, xususiy korxonalarda ishlovchi deputatlarda bunday imkoniyatlar kam. Garchi ularga ko‘maklashib tursak-da, faoliyatidan qoniqmayapmiz. Demak, kelgusi saylovlarda biz siyosiy partiyalar e’tiborini muammoning mana shu jihatiga qaratmog‘imiz lozim. Toki, deputat o‘z ishidan ortib, saylovchilar uchun ham talab darajasida faoliyat ko‘rsata olsin.

Yana bir taklifim, siyosiy partiyalarning deputatlik faoliyatiga ta’sirini kuchaytirish kerak, deb o‘ylayman. Hozircha bu holat faqat qaysidir rahbarning hisobotini tinglash yoki qayergadir press-tur tashkil etish bilangina ko‘zga tashlanyapti. Siyosiy partiyalar markaziy kengashlari, ularning viloyatlardagi bo‘limlari u yoki bu muammoni sessiyada ko‘tarib chiqish uchun bevosita joylarda deputatlarga amaliy yordam ko‘rsatishi zarur. Hatto o‘z deputatlarining ism-sharifi, telefon raqamlari har bir mahallada yozilgan bo‘lishiga erishish ham siyosiy partiyalar zimmasiga yuklanishi zarur.

Yangi davr yangi talablarni qo‘ymoqda. Bu talablar xalqaro andozalar bilan ham bevosita bog‘liq. Mahalliy Kengashlar endilikda xorijiy hamkasblari bilan ham tajriba almashishiga to‘g‘ri keladi. Tabiiyki, bunday paytda deputatlikka tanlanadigan nomzodlarga qo‘yiladigan talablar ham yuqori bo‘lmog‘i lozim.

Deputat sifatida aytishim mumkinki, saylovchining ishonchi, saviyasi mahalliy Kengashlar obro‘sini oshiradi. Shuning uchun har bir mahallada yangi qonunlar mohiyatini tushuntirish yuzasidan jonli muloqotlar o‘tkazish, aholini davlat siyosatidan, o‘rtaga tashlanayotgan g‘oya va yangi dasturlardan, loyihalardan xabardor etish juda katta ahamiyatga ega.

Deputat har kuni saylovchining yonida bo‘lishi shart emas. Ammo uning ko‘nglini, dardini, muammosini bilishi shart. Xalq ishonchini qarzga bermaydi, uni oqlash kerak. Zero, deputatning salohiyati, qadr-qimmati ham uning ana shu qarzni uzish yo‘lidagi mas’uliyati bilan o‘lchanadi.

**Farmon TOSHEV,**
**xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashi deputati,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi.**

# NURLI MANZILLAR SARI ZALVARLI QADAMLAR

*Mustaqilligimizning o‘ttiz uch yilligini keng nishonlash arafasida turibmiz. Ana shu vaqt, xususan, keyingi 7-8 yil mobaynida amalga oshirilgan ishlar, bu yo‘ldagi mehnatu mashaqqatlardan ko‘z yumib bo‘lmaydi. Paxta yakkahokimligi va majburiy mehnatga barham berilishi, bolalar va xotin-qizlar huquqlari kafolatlanishi, ilm-fanga e’tibor, ta’lim, tibbiyot, sud-huquq, xalqaro aloqalar, qurilish va uy-joy kabi sohalardagi yuksalishlar...*

Senator minbari

Hayotimizda shaffoflik, xolislik, teng huquqlilik, adolat, qadr-qimmat, e’tiqod erkinligi kabi tushunchalar yaqqol bo‘y ko‘rsatmoqda. Bugun maktabni bitirayotgan yigit-qizlar o‘z bilim va salohiyatini namoyon etib, istagan oliy o‘quv yurtida o‘qishi, zamonaviy kasblarni egallashi mumkin. Tadbirkorlar imtiyoz va qulayliklardan unumli foydalanmoqda. Diniy va milliy bayramlarimizni bemalol, birovdan yashirmay nishonlay olamiz. Huquqimizni talab qilishga, tiklashga hech qanday monelik yo‘q. Mudofaa, oziq-ovqat, transport va logistika, xalqaro aloqalarda yetarlicha salohiyatga egamiz. Bunday misollarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Endi yangi-yangi g‘oyalarni amalga oshirish, yutuqlarimizni yanada rivojlantirish, yuksak marralarni zabt etishimiz zarur. Bu yo‘lda barchamizni birlashtiradigan yagona tushuncha – Istiqlol! Ko‘p millatli xalqimizning noyob iqtidori, fidokorona mehnati, aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyatini namoyish qilishda, bu kuchni inson qadri oliy mezon bo‘lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo‘lida sarf etishga yo‘naltirishda aynan birdamlik ko‘maklashadi. Shuning uchun ham Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarorida Mustaqillik bayrami “Bir bo‘lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!” degan bosh g‘oya asosida o‘tkazilishi qayd etildi.

Darhaqiqat, mamlakatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqish, yangi jamiyat qurish yo‘lida amalga oshirilayotgan barcha islohot xalqimizning jipsligi, birdamligi, ezgu maqsadlar yo‘lida yakdil intilishi natijasi o‘laroq ro‘yobga chiqmoqda.

Bu yil Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari Kengashlari saylovlari joriy yilning 27-oktabrida o‘tkazilishi belgilandi. E’tiborlisi, ushbu saylovlar Konstitutsiyada belgilab berilgan mutlaqo yangi ijtimoiy-siyosiy muhitda o‘tkaziladi. Ya’ni O‘zbekiston tarixida ilk bor Oliy Majlis Qonunchilik palatasi saylovlari aralash saylov tizimi – majoritar-proporsional tizim asosida o‘tadi.

Saylov qonunchiligi ilg‘or demokratik standartlarga mos ravishda tubdan takomillashtirildi. Jumladan, saylov organlarining Markaziy saylov komissiyasi boshchiligidagi yangi tizimi joriy etildi, siyosiy partiyalar tomonidan deputatlikka nomzodlarni ko‘rsatishda ayollarning ulushi kamida 40 foiz bo‘lishi belgilandi. Markaziy saylov komissiyasi tomonidan saylovlar “Mening tanlovim – obod Vatanim!” shiori ostida o‘tkazilishi, ayniqsa, e’tiborga molik.

Eng ulug‘, eng aziz ayyom arafasida muhim siyosiy jarayonga start berilgani, unga jiddiy tayyorgarlik ko‘rilayotgani istiqlolimiz sharofatidan.

Zotan, butun xalqimiz bir yoqadan bosh chiqarsa, barchamiz bir maqsad yo‘lida jipslashsak, har qanday to‘siqni yenga olamiz. Bu g‘alabalar porloq kelajagimizni, yangi O‘zbekistonni bunyod etish borasidagi eng to‘g‘ri va oqilona yo‘limizni belgilab beradi. O‘tmishdagi xatolardan xulosa chiqarishga, eng maqbul qarorlarni qabul qilib, olg‘a intilishimizga zamin yaratadi. Zero, kuch va salohiyatimizni mustaqilligimizni mustahkamlash, yurtimizni yanada obod, xalqimiz turmushini yanada farovon qilishga sarf etsak, albatta, nurli manzillarga yetajakmiz!

**Ulug‘bek FAYZIYEV,**
**Oliy Majlis Senati a’zosi,**
**“Zarafshon Golden Group” kompaniyasi ta’sischisi.**

# ISHBILARMONLIK RAVNAQIDA YANGI BOSQICH

*Bir vaqtlar odamlar tadbirkor bo‘lishga qo‘rqardi. Bugun-chi? Bugun mamlakatimizda davlatimiz rahbari boshchiligida fuqarolarga biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar, mustahkam huquqiy asoslar yaratib berildiki, bu ishbilarmonlar sonining oshishiga xizmat qilmoqda.*

Mulohaza

Tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishda zamonaviy tendensiyalardan kelib chiqib, bo‘shliqlarni bartaraf etish maqsadida ilg‘or xalqaro tajribada sinalgan bir qancha yangi huquqiy normalar asosida “O‘zbekiston Respublikasining Tadbirkorlik kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgani ham bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi, desak, ayni haqiqat.

Kuni kecha Qonunchilik palatasida deputatlar tomonidan qabul qilingan ushbu kodeks 8 ta bo‘lim, 29 ta bob va 315 ta moddadan iborat. Hujjat bilan tadbirkorlik sohasini tartibga soluvchi 8 ta yaxlit qonun va o‘ndan ortiq qonunosti hujjatlari unifikatsiya qilinmoqda hamda kodifikatsiyalashtirilmoqda.

Xo‘sh, ushbu kodeks loyihasini ishlab chiqishga nega zarurat tug‘ildi? Mazkur hujjatda qanday yangi normalar belgilanmoqda?

Avvalo aytish kerakki, kodeksni qabul qilishdan asosiy maqsad fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi va undan manfaatdor bo‘lishi uchun kafolatlar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoitlar yaratishga, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlashga qaratilgan huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iborat.

Shundan kelib chiqib, kodeksda tadbirkorlar manfaatlarini, erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan yangi normalar belgilanmoqda.

Xususan, tadbirkorlik subyektlari kichik, o‘rta va yirik toifalarga ajratilmoqda. Unga ko‘ra, kichik tadbirkorlik subyektlari – xodimlar soni 100 nafargacha, yil davomida jami daromadi 35 ming BHMgacha; o‘rta tadbirkorlik subyektlari – xodimlar soni 101 – 250 nafar, yil davomida jami daromadi 35 ming BHMdan 350 ming BHMgacha; yirik tadbirkorlik subyektlari – xodimlar soni 250 nafardan ortiq va yil davomida jami daromadi 350 ming BHMdan ortiq bo‘lgan tadbirkorlik subyektlaridir. Bunda kichik tadbirkorlik subyektlari toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar va kichik korxonalar kirishi belgilandi.

Tadbirkorlik subyektlarining toifalarga ajratilishi ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va sifatli rasmiy statistika ma’lumotlarini shakllantirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Kodeksda yakka tartibdagi tadbirkorlarga qonunchilikda taqiqlanmagan har qanday faoliyatni amalga oshirish huquqi berilayotgani esa ular faoliyatini yanada kengaytirishga va ko‘proq daromad olishiga imkoniyat yaratadi.

Mazkur hujjatda tadbirkorlik faoliyatiga davlat organlari aralashuvini mumkin qadar cheklashga qaratilgan normalar ham belgilanib, ular faoliyati ustidan davlat nazorati sohasida qator yangiliklar joriy etilayotir. Xususan, nazorat organlari tomonidan nazorat tartibini belgilovchi qonunchilik hujjatlarini qabul qilish taqiqlanmoqda. Davlat nazoratining 4 ta statistika va boshqa axborotlarni tahlil qilish, monitoring, profilaktik tadbirlar va tekshiruv shakli belgilanmoqda. Bunda davlat nazoratining faqat tekshiruv shaklida aniqlangan qoidabuzarliklar yuzasidan tadbirkorga nisbatan huquqiy ta’sir chorasi qo‘llanilishi mumkinligi nazarda tutilyapti.

Muhim jihatlardan yana biri shuki, endilikda asossiz tekshiruvlarning oldini olish, tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish maqsadida 38 ta davlat organining 147 ta nazorat funksiyasi va Biznes-ombudsmanni xabardor etish tartibida o‘tkaziladigan 20 turdagi tekshiruvlar ro‘yxatlari mazkur kodeksga ilova sifatida tasdiqlanib, tekshiruvlar faqat shu ro‘yxat asosida o‘tkazilishi belgilanyapti. Bu, o‘z navbatida, davlat organlarining tadbirkorlik faoliyatiga asossiz aralashuvi holatlariga chek qo‘yadi.

Tadbirkor faoliyatidagi barcha tekshiruv profilaktik tadbirlar o‘tkazilgandan so‘nggina amalga oshirilishi va ilk bor nazorat qiluvchi organlarning hisobdorligi belgilab qo‘yilishi hamda endilikda nazorat organi “xavfni tahlil qilish” bo‘yicha o‘tkaziladigan tekshiruv to‘g‘risida tekshiruvga kamida 10 ish kuni qolganda tadbirkorni oldindan xabardor etishi qat’iy belgilab qo‘yilgani ham ayni muddao bo‘ldi. Zero, bu tadbirkorlik erkinligi kafolatlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

**Abdig‘ani UMIROV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.**

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

# VAZIR AXBOROTI ESHITILDI

*Avval xabar berganimizdek, kuni kecha Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi majlisi bo‘lib o‘tdi. Unda deputatlar mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor bo‘lgan qator muhim qonun loyihalari bilan birga, parlament nazorati faoliyatiga doir masalani ko‘rib chiqdi.*



Majlisda deputatlar tomonidan Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri B. Musayevning “2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturining ijrosi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida”gi axboroti eshitildi.

Ta’kidlanganidek, keyingi yillarda Prezidentimiz rahbarligida mamlakatimizda aholi bandligi va daromadlarini oshirish, ishsizlar, ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar, mehnat bozoriga ilk bor kirib kelayotgan bitiruvchilar bandligini ta’minlash, ehtiyojmand aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, so‘nggi yetti yilda bandlik sohasidagi islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlash va sohani tubdan takomillashtirishga qaratilgan 5 ta qonun, 1 ta kodeks, Prezidentning 30 dan ortiq Farmon va qarorlari qabul qilindi. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonun va yangi tahrirdagi Mehnat kodeksi bilan aholi bandligini ta’minlashda zamonaviy kasbiy va mehnat standartlarini joriy etish, mehnat munosabatlari xalqaro miqyosda tan olingan, ham ish beruvchining, ham xodimning manfaatlari himoyasini ta’minlovchi huquqiy poydevor yaratildi.

Shuningdek, mamlakatimiz Prezidenti tomonidan aholi bandligi va daromadlarining o‘sishini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, ushbu masalalarning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilayotgan videoselektor yig‘ilishlarida hamda Prezidentimizning hududlarga tashrifi davomida ham yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta’minlash masalasi doim e’tibor markazida bo‘ladi.

B. Musayevning ma’lum qilishicha, joriy yilning birinchi yarmida Sayxunobod, Uychi, G‘ijduvon va Zarbdor tajribalari boshlanib, iqtisodiy kompleks mahallaga tushirilgani hisobiga 4 mingdan ortiq mahallalar sanoat va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtirilib, 1 mln. 600 ming aholi rasmiy band bo‘lgan. Yil yakuniga qadar ushbu tajribalar asosida 2 mln. 416 ming aholi bandligini ta’minlash rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbarining 2024-yil 9-yanvardagi tegishli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini samarali ta’minlash bo‘yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, bandlik dasturi doirasida tashkil etilgan ish o‘rinlari va band bo‘lgan aholini onlayn rejimda kuzatib borish maqsadida tegishli vazirlik va idoralarning elektron ma’lumotlar bazasiga integratsiya qilingan “yangiish.mehnat.uz” elektron platformasi ishga tushirildi.

Ushbu elektron platforma orqali joriy yilning birinchi yarim yilligida 2,9 mln.dan ziyod aholining bandligi ta’minlangan bo‘lsa, shundan 1 mln. 483 mingi doimiy, 1 mln. 417 mingi mavsumiy, 39 ming nafari esa vaqtinchalik ishlarda band bo‘lgan.

2024-yilning yanvar – iyun oylarida bandlik bo‘limlariga 415 ming ishsiz fuqaro murojaat qilgan bo‘lib, ularning 368 ming nafariga bandlik xizmatlari ko‘rsatilgan, 47 ming nafari hokim yordamchilari tomonidan oilaviy tadbirkorlik bo‘yicha imtiyozli kredit va ijara asosida ekin yer maydonlari olishga yo‘naltirilgan.

Shuningdek, 2024-yilda nogironligi bo‘lgan 16 ming shaxs bandligini ta’minlash bo‘yicha alohida dastur ishlab chiqilib, joriy olti oyda nogironligi bo‘lgan 12 ming nafar shaxsning bandligi ta’minlangan.

Munozaralar davomida deputatlar sohada amalga oshirilayotgan ishlarni e’tirof etib, xorijdan qaytib kelgan fuqarolarning bandligini ta’minlashda mehnat organlarining o‘rni sezilarli darajada emasligini, ular faqat monitoring qilish bilan cheklanib qolayotganini qayd etdi.

Xususan, deputat Umida Zokirova xorijdan qaytgan mehnat muhojirlarini o‘zimizda rasmiy daromadli ish bilan ta’minlash maqsadida hududiy mehnat organlarining mas’uliyatini kuchaytirish bo‘yicha qanday chora-tadbirlar amalga oshirilayotganini so‘radi.

Vazir o‘z javobida xorijdan qaytgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha alohida jamg‘arma borligini, ularga huquqiy, moddiy, ijtimoiy yordam va axborot maslahatlari berib borilishini bildirdi. O‘tgan olti oy davomida xorijdan qaytgan 325 mingdan ziyod mehnat muhojirlaridan 283 ming nafarining bandligini ta’minlashga erishilganini aytib o‘tdi.

Deputat Gulrux Agzamova esa joriy 6 oyda birgina xizmatlar sohasida norasmiy ish o‘rinlarini rasmiy sektorga o‘tkazish orqali 245,3 ming ish o‘rni yaratilgani, lekin respublikamizda norasmiy bandlikning ulushi hali ham saqlanib qolayotganini aytib, vazirlikda norasmiy bandlikni sezilarli darajada kamaytirish borasida yana qanday ishlar amalga oshirilishi lozimligi haqida aniq rejalar bormi, degan savol bilan vazirga yuzlandi.

B. Musayev ushbu masala yuzasidan batafsil tushuntirish berib, ayni paytda norasmiy sektorning ulushini qisqartirib, rasmiy sektorning ulushini oshirish vazirlik oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri ekanini ma’lum qildi.

Quyi palata deputati Mohira Xo‘jayeva davlatimiz rahbarining shu yil 9-yanvardagi tegishli qarori bilan 2024-yil davomida aholi bandligiga ko‘maklashish va ish beruvchilarni rag‘batlantirish uchun jami 462 mlrd. so‘m subsidiya ajratilishi ko‘zda tutilgani, hozirgi kunga qadar ushbu subsidiyalarning qancha miqdori ajratilgani va natijada necha nafar fuqaroning bandligi ta’minlanganini so‘radi.

Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri subsidiya ajratish yaxshi mexanizmga aylangani, avval kasb-hunarga o‘qib, diplomini ko‘rsatsa, keyin subsidiya ajratish mexanizmi yo‘lga qo‘yilganini aytdi. Shu paytga qadar 252 mlrd. so‘m miqdorida subsidiya mablag‘lari ajratilgan va natijada 44 ming nafar fuqaroning bandligi ta’minlangan.

Deputatlar bu borada qilingan ishlarni ijobiy baholagan holda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish borasidagi sa’y-harakatlar natijadorligini yanada kengaytirish choralarini ko‘rish, shuningdek, hududlarda chet davlatlardan qaytib kelgan fuqarolarni ishga joylashtirish borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalarni berdi.

Majlisda B. Musayevning axboroti ma’lumot uchun qabul qilindi va kun tartibidagi masala yuzasidan samarali parlament nazoratini ta’minlashga kelishib olindi.

## SO‘Z – MAJLIS ISHTIROKCHISIGA

**Oltinoy MAMIROVA,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:**

– Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri B. Musayevning bandlik yo‘nalishida bajarilgan ishlar yuzasidan axborotini eshitdik. Albatta, vazirlik tomonidan bu borada qilinayotgan ishlar e’tiborga molik.

Ammo o‘tkazilgan tahlillar aholi bandligini ta’minlash borasida erishilgan natijalar bilan bir qatorda, sohada hali hal etilishi lozim bo‘lgan ayrim masalalar ham borligini ko‘rsatmoqda.

Masalan, joriy yilda respublika bo‘yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun 41 ming ish o‘rni zaxiraga qo‘yilgan bo‘lsa-da, yanvar – iyun oylarida 19 ming nafar fuqaro ishga joylashtirilgan.

Shuningdek, Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi a’zolari tomonidan aprel-may oylarida hududlarda olib borilgan o‘rganishlarda chet davlatlardan qaytib kelgan fuqarolarning bandligini ta’minlashda mehnat organlarining o‘rni sezilarli emasligi, ular faqat monitoring qilish bilan cheklanayotgani, joylarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi yetarli darajada ta’minlanmayotgani aniqlandi.

Xususan, 2024-yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturlarining tuman (shahar)lar kesimidagi ijrosi ham barcha hududda birdek samarali ta’minlanyapti, deb bo‘lmaydi.

Shundan kelib chiqib, majlisda aholi bandligiga erishish va yangi ish o‘rinlarini ochish, fuqarolarning daromadlarini oshirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratish lozimligi qayd etildi. Bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirish, shu orqali kambag‘allikni qisqartirish yuzasidan ta’sirchan chora-tadbirlarni ko‘rish zarurligi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, Prezidentimizning 2024-yil 9-yanvardagi “2024-yilda ish o‘rinlari tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini o‘z muddatida va sifatli ta’minlash bo‘yicha zarur tavsiyalar berildi.

**“Xalq so‘zi”.**

**YUNESKO shafeligida 25 – 30-avgust kunlari Samarqandda “Sharq taronalari” XIII xalqaro musiqa festivali bo‘lib o‘tadi.**

Vatanimiz mustaqilligining 33 yilligi oldidan

# BIRLASHGAN BIRLIKDA MURODGA YETGAY

*Bir insonning, bir oilaning elu yurtdan ayro yashab, baxtli bo'lishini tasavvur qilish mushkul bo'lganidek, bir millat ahlining o'zga elu elatdan, qavmu qarindoshlardan xoli yashashini ham ko'z o'ngimizga keltirolmaymiz. Bobomeros hikmatlarimiz bisyor. "Odam odam bilan tirik", degan naql ana shu silsilaga mansub. Demak, qardosh qardosh bilan, xalqlar xalqlar bilan do'stlikda, hamjihatlikda gullab-yashnaydi, barqaror bo'ladi. Quyidagi bitiklar ham ayni shu fikrlar ifodasi o'laroq qog'ozga ko'chgandi:*

***Bu dunyoni asrab bo'lmas ko'z yosh bilan,***
***Tong jamoli kulib chiqqan quyosh bilan.***
***Xalqlar asli xalq bo'lgaydir qardosh bilan,***
***O'zbekman, deb sanasam besh barmog'imni,***
***Ko'rdim, turkman, tojik, qirg'iz, qozog'imni.***



**Mahmud TOIR,**
**O'zbekiston xalq shoiri**

O'zbekona bag'rikenglik bizga azal-azaldan meros. Borini baham ko'rish, qo'ni-qo'shniga ilinish, mehru oqibatga raxna solmaslik, yolg'izlarning ahvolidan xabar olish, bemorlarni yo'qlash, o'ziga tilagan ezgu niyatni o'zgalarga ham tilash, qisqacha aytganda, odamiylik a'mollariga rioya qilish o'zbekning qon-qoniga singib ketgan fazilatlardir. Shu bois millat sifatida hamisha yuzimiz yorug'. Do'stga qo'limiz ko'ksimizda, mehmonga dasturxonimiz yozig'liq, eshigimiz ochiq.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorini o'qigan har bir odam jonajon millatini, tabarruk Vatanimizni yanada ziyoda sevib qoladi, bu bayramning ahamiyatini, ko'lamini teranroq anglaydi.

Inson bolasi hamisha yaxshi so'zning gadosi, fidosidir. Yaxshi kunlarni esa orziqib kutmagan odam bo'lmasa kerak. Ayniqsa, butun millat to'lib-toshib nishonlaydigan bayramlarning yo'rig'i bo'lakcha.

Har bir millat tarixida, dunyo davlatlari, dunyo xalqlari tarixida bayramlar ko'p. Jumladan, bizning ham bayramlarimiz talaygina. Ammo ana shu bayramlarning avvalida hurriyat bayrami, ozodligimiz, erkimiz shodiyonasi sanalgan Mustaqillik tantanasi turadi.

Ishoning, har yili xalqimiz, ayniqsa, ziyolilar Prezidentimizning mustaqillik bayramini ko'tarinki ruhda o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish borasidagi qarorini orziqib kutadi. Chunki bu bayram erkimizni tiklagan, bag'rikeng xalq sifatida 130 dan ortiq millatu elatni jamuljam qilgan, davlat sifatida o'z yo'liga, o'z qudratiga ega, tenglar ichra teng etib, yuksak taraqqiyot imkoniyatini yaratayotgan bayram.

Bu qutlug' kunning o'ziga xosligi tor doirada, ma'lum kasb-kor egalari davrasida nishonlanmaydi. U – umumxalq bayrami.

Shunday g'oyalar bo'ladiki, bir mavsum yashaydi. Shunday g'oyalar bo'ladiki, yillar o'tsa ham o'z mohiyatini saqlab qolaveradi. Ammo mustaqillikning 33 yillik tantanasiga doir g'oya aslida bir umrlik g'oya, desak, aslo mubolag'a emas. Yer yuzida hayot mavjud va uning gultoji bo'lib banibashar istiqomat qilar ekan, bir xalq, yakdilu yakqadam bo'lib yashash uchun da'vatlar yangrashda, bonglar chalinishda davom etaveradi. Illo, ahillik, birdamlik taraqqiyotning asosiy lokomotivi hisoblanadi. Tabiiyki, bu g'oya tafakkuri keng, uzoqni ko'ra oladigan insonga hamisha esh, har doim zarur va muhimdir.

Inchunin, qarorda alohida urg'ulanganidek, *"yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlari yetakchi o'rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlar, mehnatkash va bag'rikeng xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida"* barchamizning o'z qarashimiz bo'lishi lozim.

* * *

Qarorda ta'kidlanganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar jarayonida mustaqil mamlakat bo'lib dunyoga ochilib yashash, erkin va ozod xalqlar oilasida munosib o'rin egallab, zamonaviy taraqqiyotga erishish naqadar ulug' baxtu saodat va sharafdir. Shuningdek, bu katta mas'uliyat ekanini chuqur his etmoqdamiz.

"Mas'uliyat" deganda nimani nazarda tutyapmiz? Avvalo, tinchligimiz, birligimizni asrashda yurtimiz obodligi, xalqimizning farovon hayot kechirishida har birimizning munosib hissamiz, o'zimizning o'rnimiz bo'lmog'i darkor. Chunki bu qutlug' bayramning bosh g'oyasi, ya'ni "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" degan ulug'vor so'zlar ana shu ezgu sa'y-harakatlarga qaratilgan.

> ***"Har yili xalqimiz, ayniqsa, ziyolilar Prezidentimizning mustaqillik bayramini ko'tarinki ruhda o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish borasidagi qarorini orziqib kutadi. Chunki bu bayram erkimizni tiklagan, bag'rikeng xalq sifatida 130 dan ortiq millatu elatni jamuljam qilgan, davlat sifatida o'z yo'liga, o'z qudratiga ega, tenglar ichra teng etib, yuksak taraqqiyot imkoniyatini yaratayotgan bayram."***

Shunday muborak kunlarda, tan olib aytishimiz kerak, Yurtboshimiz rahnamoligida nafaqat O'zbekistonda istiqomat qilayotgan barcha millat va elat ahli birlashdi, jipslashdi, yangi O'zbekistonning yangi qudratiga aylandi, balki qardoshlarimiz biz bilangina emas, qo'shni davlatlar ham bir-birlari bilan yanada ahil-inoq bo'la boshladi. Markaziy Osiyo bir musht atrofida yakdillashmoqda. Bu esa, albatta, atrofdagi ko'plab mamlakatlarning ham havasiga, ham hasadiga sabab bo'layotgani sir emas. Muhimi, yurtdoshlarimiz qo'shni respublikalarga qariyb emin-erkin borib-kelmoqda. Avvalgidek to'siqlar, o'tib bo'lmas devorlar bugun butunlay olib tashlangan, do'stlik eshiklari lang ochilgan.

Bu qutlug' kunlar, bu hurriyat, bu shukuhli onlar osmondan tushgani yo'q. Bu gaplarni juda ko'p tadbir va uchrashuvlarda aytishdan uyalmaymiz. Chunki bu aytib turilmasa, unutiladi – odam tongga yetganida tunni unutadi, yaxshi kunlarga borganida og'ir damlarni esdan chiqaradi... O'tgan 33 yildagi alamli yo'qotishlar, qo'shni davlatlar bilan o'zaro kelishmovchiliklar shu qadar ortib ketgandiki, Xudo ko'rsatmasin, kimdir chetdan turib uchqun chiqarsa, hamma yoq alanga ichida qolardi. Boisi nafaqat chegaralar simto'rlar bilan qattiq o'ralgan, balki minalashtirilgan, ko'zlaru qalblarga ham qora parda tortishga urinishlar avjida edi. Ukaga shundoqqina chegaraning bu betida yashayotgan akani, singlisi yoki boshqa qarindoshini ko'rish qat'iyan taqiqlangan, bu kamida jinoiy javobgarlikka tortilish bilan yakunlanardi.

Garchi bugungi dorilamon zamonda o'sha damlarni ko'p eslamasak-da, bir-bir xalqimizga bu tarixiy haqiqatlarni ham xuddi yuziga ko'zgu tutgandek aytib turish kerak. Shunda bugungi kunlar qadri, bordi-keldi, do'stlik kabi oliy xislatlarning o'rni yanada ortadi. Asosiysi, birlik, yakdillikdek to'lqin, kuchga ega bo'lsak, bizni chetdan turib hech kim o'yinchoq qilolmasligi, irodamizni qayirolmasligi, tanlagan yo'limizdan og'dirolmasligiga guvoh bo'lamiz.

Shubhasiz, qarorda ta'kidlanganidek, *"xalqimizning milliy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ichki va tashqi siyosat borasidagi tub o'zgarishlar, erishilayotgan amaliy natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda".*

Baxtimiz shundaki, bugun ana shu ishonch, o'sha ahillik, o'zaro hamkorligu hamfikrlik, ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy sohalardagi taraqqiyot xalqlarimiz ko'ksini tog'dek ko'tarmoqda. Birdamlikning naqadar bebaho ne'mat ekanini hayotning, davru zamonning o'zi ko'rsatib qo'ymoqda.

* * *

Yangi O'zbekiston degan davlat va uning oqil rahnamosi tomonidan bugun Birlashgan Millatlar Tashkilotida o'zbekona halollik, o'zbekona mardlik, o'zbekona mulohaza, mushohada, yetti o'lchab bir kesish bilan aytilayotgan ezgu niyatlar, ezgu ishlar, ezgu amallar, taraqqiyparvar tashabbuslar butun olamga ma'lumu manzur bo'lmoqda. Hatto dunyoning manaman degan siyosatchilariyu siyosatshunoslari, o'zini ko'hna deb bilgan xalqlar e'tiboriyu ehtiromiga, e'zoziga sazovor bo'lmoqda; mehnatiga yarasha baraka, qadriyatiga yarasha qadr topmoqda; ilmu hikmatiga yarasha azizu mukarram bo'lmoqda.

Zero, qarorda keltirilganidek, *"barchamiz inson qadri oliy mezon bo'lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo'lida qo'lga kiritgan zafarlarimizni mustaqil taraqqiyot g'oyasiga hamisha sodiq, mard va matonatli xalqimizning fidokorona mehnati, aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyati mahsuli deb bilamiz va ana shunday olijanob elning farzandlari ekanimizdan cheksiz faxrlanamiz".*

Shu bois biz mustaqilligimizning 33 yillik shodiyonalarini cheksiz quvonch, qat'iy ishonch, yuksak iftixor bilan bayram qilamiz. Bugun sizu bizga, butun O'zbekiston xalqiga ana shunday farahli onlar, ertangi kunga bo'lgan mustahkam ishonch tuyg'usi yarashadi. O'ylaymizki, bugungi murakkab va qaltis siyosiy qarama-qarshiliklar domiga tortilayotgan dunyoda o'zlikni asrash, mustaqillikni qo'ldan bermaslikning birdan bir yo'li – bu bir bayroq va bir bayroqdor atrofida birlashishdir. Biz qanchalik kuchli birlashsak, jipslashsak, yagona davlat, yakdil xalq o'laroq jadal taraqqiy etsak, shunchalik mustahkam siyosiy immunitetga ega bo'lamiz. Bizni hech qanday mafkuraviy bo'hronlar, geosiyosiy to'fonlar g'orat etolmaydi, bukolmaydi, yo'limizdan adashtira olmaydi. Mustaqilligimiz tom ma'noda abadiy bo'ladi. Chunki birlashgan birlikda murodga yetgay.

## QISQA SATRLARDA

### Majmuaviy sport musobaqalari

*Ayni kunlarda hududlarda "Bir bo'lsak – yagona xalqmiz, birlashsak – Vatanmiz!" shiori ostida majmuaviy sport musobaqalari o'tkazilmoqda.*

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'mondonligi tashabbusi bilan Sariosiyo tumanida tashkil etilgan ana shunday musobaqalardan birida yoshlar harbiy-amaliy sportdagi qobiliyatlarini sinovdan o'tkazdi.

"Harbiylashtirilgan sport estafetasi", "Arqon tortish" va "Zakovat" shartlari bo'yicha o'zaro bellashuvlarning tuman bosqichi yakuniy natijalariga ko'ra g'oliblar aniqlanib, munosib rag'batlantirildi.

### Fidoyi qutqaruvchilar taqdirlandi

*Buxoro viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha namunali faoliyat yuritayotgan xodimlarni taqdirlash marosimi o'tkazildi.*



Tadbirda qutqaruvchilarning fidokorona mehnati e'tirof etilib, alohida jonbozlik ko'rsatayotgan soha vakillariga esdalik sovg'alari topshirildi.

Shuningdek, tadbir davomida Romitan tumani 13-kasbiylashtirilgan yong'in qutqaruv qismi hamda Buxoro shahar favqulodda vaziyatlar bo'limi 1-yong'in qutqaruv qismiga yangi texnikalar taqdim etildi.

### Yosh xodimlarning mediasavodxonligi oshirildi

*O'zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan diniy sohadagi yosh xodimlarning axborot, media va kommunikatsiyalar bo'yicha savodxonligini oshirishga qaratilgan I ilmiy-amaliy seminar bo'lib o'tmoqda.*

Tadbir avvalida O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar yoshlarga mazkur yo'nalishdagi muhim tavsiyalarni taqdim etdi.

Jumladan, navqiron avlodni kasb mahoratini doimiy oshirib borish, bugungi davr bilan hamnafas bo'lish, zamonaviy ilm-fanlarni egallash va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish zarurligi uqtirildi.

### Qariyb 42 kilometrlik suv tarmog'i ta'mirlanadi

*"Toshkent viloyati suv ta'minoti" AJda "Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash" dasturi ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish bo'lib o'tdi.*

Tadbirda dastur doirasida belgilangan Ohangaron, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq, Bo'stonliq tumanlaridagi mahallalarni markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlash borasidagi ustuvor vazifalar ko'rib chiqildi. Ta'kidlandiki, dastur ijrosi natijasida jami 41,8 km. tarmoqlar rekonstruksiya qilinib, 10,4 ming aholi toza ichimlik suvi bilan ta'minlanadi.

Yig'ilishdan so'ng ishchi guruh ayni hududlarda boshlangan jarayonlar bilan tanishdi.

**"Xalq so'zi".**

## 5 MILLION DOLLARLIK YANA BIR LOYIHA

*Kosonsoy tumanidagi "Kushon" kichik sanoat zonasida joylashgan "Gidro xayting" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan ishga tushirilgan yangi korxonada polietilen quvurlar tayyorlanadi. Loyiha ijrosiga ajratilgan 2,7 gektar yer maydonida binolar barpo etish va quvvatlarni joylashtirish hamda harakatga keltirish uchun 5 million AQSh dollari miqdorida mablag' yo'naltirildi.*

**Tadbirkorlik**

– Kommunal sohaga turli hajmdagi quvurlar yetkazib berishga ixtisoslashtirilgan korxonamizning yillik ishlab chiqarish quvvati 2 ming tonnadan ortadi, – deydi mas'uliyati cheklangan jamiyat ish boshqaruvchisi Abdulla Egamberdiyev. – Ayni paytda 150 dan ortiq kishilar mehnat qilmoqda. Ular orasida yaqingacha xorijda ishlab yurgan 30 nafar yosh ham bor. Yangi shakllantirilgan jamoa uchun qulay sharoit yaratib, mehnatga munosib maosh belgilaganmiz.

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik sanoat zonalari taraqqiyotning muhim drayveri sifatida istiqbolli loyihalar ijrosining ishonchli maydoniga aylanmoqda. Xususan, birgina "Gidro xayting" ish boshlagan "Kushon" KSZning 110 gektarlik yer maydoniga umumiy qiymati 1028 mlrd. so'mlik 128 ta loyiha joylashtirilmoqda. Ular to'liq faoliyat boshlagach, 12500 ta yangi ish o'rni yaratiladi. Hozirgi kunga qadar bu yerda 405 mlrd. so'mlik 56 ta loyiha ro'yobga chiqarilib, 4,7 ming nafardan ko'proq fuqarolarning bandligi ta'minlandi.

**Qudratilla NAJMIDDINOV**
**("Xalq so'zi").**

REKLAMA

## TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI SHAHRISABZ FILIALI

**2023/2024-o'quv yilida bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarni hamkorlik shartnomalari hamda buyurtmalar asosida ish joylariga taqsimlashga kirishganini ma'lum qiladi. 2023/2024-o'quv yilida Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filialini bitirayotgan yosh mutaxassislar to'g'risida ma'lumot**

**BAKALAVRIAT**

| | | | | | | Shu jumladan, viloyatlar bo'yicha | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Kodi | Yo'nalishlar nomi | Bitiruvchilarning umumiy soni | | | Qoraqalpog'iston Respublikasi | | Andijon viloyati | | Buxoro viloyati | | Jizzax viloyati | | Navoiy viloyati | | Namangan viloyati | | Samarqand viloyati | | Surxondaryo viloyati | | Sirdaryo viloyati | | Toshkent viloyati | | Farg'ona viloyati | | Xorazm viloyati | | Qashqadaryo viloyati | | Toshkent shahri | | Boshqa davlatlar | |
| 1 | 2 | 3 | 4 | | | 5 | | 6 | | 7 | | 8 | | 9 | | 10 | | 11 | | 12 | | 13 | | 14 | | 15 | | 16 | | 17 | | 18 | | 19 | |
| | | | jami | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh | g | sh |
| 1 | 5311000 | Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish | 40 | 8 | 32 | | | | | 1 | | | | 1 | | | | 1 | | 2 | | | | | | | | | | 35 | | | | | |
| 2 | 5320300 | Texnologik mashinalar va jihozlar (tarmoqlar bo'yicha) | 70 | 19 | 51 | | | | | | | | | 1 | | | | | | | | | | | | 1 | | 1 | | 67 | | | | | |
| 3 | 5320400 | Kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari) | 36 | 6 | 30 | 1 | | 2 | | | | 1 | | 1 | | | | 1 | | 1 | | | | | | | | 1 | | 28 | | | | | |
| 4 | 5321000 | Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi | 51 | 20 | 31 | | | 5 | | | | 1 | | 1 | | 1 | | 1 | | 2 | | | | 1 | | 1 | | 1 | | 36 | | 1 | | | |
| 5 | 5322800 | Funksional ovqatlanish va bolalar mahsulotlari texnologiyasi | 25 | 11 | 14 | | | | | | | | | 1 | | | | 1 | | | | | | | | | | 4 | | 19 | | | | | |
| 6 | 5322500 | Vinochilik texnologiyasi | 35 | 16 | 19 | | | 1 | | 1 | | 1 | | | | 1 | | 1 | | 1 | | | | 2 | | 1 | | 1 | | 25 | | | | | |
| 7 | 5310900 | Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti (tarmoqlar bo'yicha) | 42 | 10 | 32 | | | | | 5 | | | | | | | | 1 | | 1 | | | | 1 | | | | | | 34 | | | | | |
| | | JAMI | 299 | 90 | 209 | 1 | | 8 | | 7 | | 3 | | 5 | | 2 | | 6 | | 7 | | | | 4 | | 3 | | 8 | | 244 | | 1 | | | |

**Siz o'zingizni qiziqtirgan yosh mutaxassislar bilan bevosita uchrashib, suhbatlashib, ularning bitiruv ishi himoyalarida qatnashib, o'zingizni qiziqtirgan barcha ma'lumotga ega bo'lasiz. Takliflar bilan quyidagi telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin: 75-522-50-68.**

**Ostona shahrida o'tkazilayotgan "O'zbekiston kinosi kunlari" doirasida kinoixlosmandlar e'tiboriga "Abdulla Oripov" filmi va "Yasha, xotin" komediyasi namoyish qilindi.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229.
Buyurtma G 542. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 21.30 Topshirildi — 23.40 1 2 3 4 5 6